

ADOLAT NIQOBIDAGI JALLODLAR: MUQIMIYNING «TANOBCHILAR» SATIRASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI VA KORRUPSIYA INDIKATORLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Talaba: Aktamova Hulkar Umar qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida Turkiston o'lkasida amal qilgan tanob solig'i va uni yig'ish tizimining iqtisodiy-huquqiy asoratlari buyuk demokrat shoir Muqimiyning «Tanobchilar» satirasi misolida tadqiq etiladi. Asarda tasvirlangan soliq yig'ish jarayoni zamonaviy iqtisodiy prinsiplar va amaldagi soliq qonunchiligi normalari (Soliq kodeksi hamda Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun) bilan integratsiya qilingan holda tahlil qilinib, mikroiqtisodiy sub'ektlarga yetkazilgan zarar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Fiskal siyosat, tanob solig'i, korruptsiya xarajatlari, soliq bazasi, axborot asimmetriyasi, dehqon xo'jaliklari, Muqimiy.

Abstract: In this article, the economic and legal consequences of the tanob tax and its collection system, which operated in the Turkestan region during the colonialism of Tsarist Russia, are investigated on the example of the satire "Tanobchilar" (The Tanob Tax Collectors) by the great democrat poet Muqimi. The tax collection process described in the work is analyzed in integration with modern economic principles and the norms of current tax legislation (Tax Code and Law on Combating Corruption), and the damage caused to microeconomic subjects is determined.

Keywords: Fiscal policy, tanob tax, corruption costs, tax base, information asymmetry, dehkhan farms, Muqimi.

Аннотация: В данной статье экономико-правовые последствия налога на таноб и системы его сбора, действовавшей в Туркестанском крае в период колониализма царской России, исследуются на примере сатиры великого поэта-демократа Мукими «Танобчилар» (Сборщики налога на таноб). Описанный в произведении процесс сбора налогов анализируется в интеграции с современными экономическими принципами и нормами действующего налогового законодательства (Налоговый кодекс и Закон о противодействии коррупции), а также определяется ущерб, нанесенный микроэкономическим субъектам.

Ключевые слова: Фискальная политика, налог на таноб, коррупционные издержки, налоговая база, асимметрия информации, дехканские хозяйства, Мукими.

KIRISH

Har qanday iqtisodiy tizimning barqarorligi va undagi tadbirkorlik subyektlari (tarixiy shaklda — dehqon xo‘jaliklari) rivojlanishi bevosita soliq-fiskal siyosatining adolatliligi hamda shaffofligiga bog‘liq. Soliqlar davlat budjetini to‘ldirish va iqtisodiyotni tartibga solish mexanizmi bo‘lishi shart, ammo mustamlaka sharoitida ular ko‘p hollarda ishlab chiqaruvchilarni iqtisodiy tomondan yo‘q qilish quroliga aylanib qoladi. Muqimiyning «Tanobchilar» asari maktab dasturlarida faqat badiiy-hajviy asar sifatida o‘rgatilgan bo‘lsa-da, bugungi kun iqtisodchisi uchun u o‘sha davr iqtisodiy inqirozini va soliq tizimidagi korrupsiyaviy sxemalarni ochib beruvchi real empirik hujjatdir [3; 4]. Chor ma’murlari tomonidan joriy etilgan ma’muriy bosim mexanizmlari bozor qonuniyatlariga zid ravishda iqtisodiy o‘shishni to‘xtatishga olib kelgan.

Tadqiqotning maqsadi Muqimiyning “Tanobchilar” satirasida aks etgan soliq munosabatlarini zamonaviy iqtisodiy nazariyalar va amaldagi qonunchilik nuqtai nazaridan tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun asarda tasvirlangan korrupsiyaviy mexanizmlar, soliq ma’murchiligi kamchiliklari hamda ularning mikro va makroiqtisodiy oqibatlari o‘rganildi.

ASOSIY QISM

1. Jinoiy kartellar va "Xufyona daromad" taqsimoti sxemasi:

Iqtisodiy munosabatlarda davlat organlari xodimlarining o‘zaro kelishib, noqonuniy daromad olish maqsadida birlashishi bozorda erkin raqobat va iqtisodiy barqarorlikni butkul izdan chiqaradi. Muqimiy asarni boshlar ekan oq, o‘quvchini tizimli korrupsiyaning ichki moliyaviy sxemasi bilan tanishtiradi. Soliq yig‘uvchi amaldorlar — Sulton Ali Xo‘ja va Hakimjon o‘rtasidagi hamkorlik shunchaki rasmiy ish munosabati emas, balki iqtisodiy resurslarni o‘zlashtirish maqsadida tuzilgan norasmiy kartel bitimidir:

*«Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.
Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq).
Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja chirog‘ yog‘i, Hakimjon pilik».*

Ushbu satrlarda shoir ishlatgan «Osh yesalar o‘rtada sarson ilik» va «Xo‘ja chirog‘ yog‘i, Hakimjon pilik» metaforasi iqtisodiy hamkorlikdagi resurslarning o‘zaro bog‘liqligini va xufyona daromadning qanday taqsimlanishini anglatadi [3]. Xo‘ja — g‘oyaviy markaz, ya‘ni chiroq yog‘idir. Hakimjon esa ijrochi mexanizm, ya‘ni pulni undirib beruvchi pilikdir. Ularning jinoiy birlashishi bozorda (qishloqda) soliq

to'lovchi ustidan mutloq monopoliyani o'rnatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan, bu sxema subyektlarning o'z vakolat doirasidan chetga chiqishi va xufyona iqtisodiyotni shakllantirganini ko'rsatadi. Ular davlat soliq ma'murchiligini shaxsiy moddiy manfaatdorlik rejasiga aylantirib olishgan bo'lib, bu jarayonda har qanday adolat prinsiplari chetga surib qo'yiladi [2].

2. Soliq bazasini sun'iy ravishda kengaytirilishi va uning mikroiqtisodiy oqibatlari:

Iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, soliq solish obyekti va bazasi (yer maydoni, daromad) aniq metrik o'lchovlar hamda kadastr hujjatlariga asoslanishi shart [5]. Asardagi soliq ijrochisi Hakimjonning dehqonlarga qarata aytgan ushbu tahdidi o'sha davr fiskal tizimidagi eng yirik iqtisodiy jinoyatni fosh etadi:

*«Ikki tanobini qilay o'n tanob,
Yurtingizi kuydurub aylay xarob».*

Ushbu jarayonni iqtisodiy tilda "soliq bazasini sun'iy ravishda inflyatsiyalash (kengaytirish)" deb atash mumkin. Haqiqatda 2 tanob (yer o'lchov birligi) bo'lgan yer maydonini hujjatda atayin 10 tanob deb ko'rsatish to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy agentning (dehqonning) real daromadidan bir necha barobar ko'p soliq yukini shakllantiradi [3; 5]. Mikro darajada bunday asossiz soliq yuki ishlab chiqarish rag'batini butkul yo'qotadi. Dehqon yer ekib foyda ko'rish o'rniga, kapitalining asosiy qismini yo'qotadi, o'z-o'zini moliyalashtira olmaydi va natijada ishlab chiqarishni to'xtatishga, yerini tashlab qochishga majbur bo'ladi. Bu esa mintaqa miqyosida yalpi mahsulot hajmining qisqarishiga va iqtisodiy turg'unlikka (retsessiyaga) olib keladi. Agar buni zamonaviy fiskal tizimimiz bilan qiyoslasak, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 5-moddasida (*"Soliq to'g'risidagi qonunchilikning aniqligi"*) shunday qonuniy norma belgilab qo'yilgan: *"Soliq to'g'risidagi qonunchilik shunday shakllantirilishi kerakki, soliq to'lovchi qaysi soliqlarni, qonuniy asoslar mavjud bo'lganda qonuniy bojlarni va soliq monitoringi uchun yig'implarni, qachon, qanday miqdorda va qaysi tartibda to'lashi kerakligini aniq bilsin"* [1]. Muqimiy tasvirlagan amaldorlar esa bu iqtisodiy va huquqiy qoidani butkul buzib, davlat va soliq to'lovchi o'rtasidagi munosabatni qonuniy asosdan ixtiyoriy bosimga aylantirishgan hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligini poymol qilishgan.

3. Transaksiya xarajatlari sifatida poraxo'rlik va "Do'g'mag'a" effekti:

Iqtisodiyotda davlat tomonidan huquqiy himoya institutlari to'g'ri ishlamasa yoki rasmiy soliq yuki asossiz ravishda oshib ketsa, bozorda norasmiy iqtisodiy kelishuvlar va qo'shimcha transaksiya xarajatlari (norasmiy to'lovlar) yuzaga keladi [5; 6]. Dehqonlar amaldorlarning tahdididan so'ng, muammoni qonuniy yoki sud tartibida hal qila olmasliklarini tushunib, o'zaro kelishishga, ya'ni iqtisodiy kelishuvga kirishishga majbur bo'lishadi:

«Jam bo'lishib aylayubon maslahat —
«Do'g'mag'a, – der, bir nima berib jo'nat».

Aqcha qo'lida iki-uch mo'ysafid. Derki:

«Bu nazringiz-u, bizlar murid».

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur».

«Do'g'mag'aga beriladigan narsa» (pora) iqtisodiy ma'noda "korrupsion renta" yoki norasmiy soliq hisoblanadi [2; 3]. Dehqonlar rasmiy soliq to'lagandan ko'ra, amaldorning o'ziga naqd pul ("ellig-u yuzni") berib, umumiy xarajatlarni kamaytirmoqchi bo'lishgan. Biroq, bu yerdagi iqtisodiy fojia va tizimning chiriganligi shundaki, amaldorlar porani olgandan keyin ham baribir yer solig'ini ikki barobar ("duchandon") oshirib yozib ketishadi. Bu hodisa korrupsiyalashgan tizimda norasmiy shartnomalar ham hech qanday iqtisodiy kafolat bermasligini va ishlab chiqaruvchining mulkiy huquqlari mutloq himoyasizligini isbotlaydi. Ushbu salbiy holat bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta zarar va g'ov bo'luvchi omildir. U kapital oqimini to'g'ri taqsimlanishdan to'sadi va investitsiyaviy muhitni o'ldiradi. Davlatimiz iqtisodiyotini bunday illatlardan himoya qilish va sog'lom raqobatni shakllantirish maqsadida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasida ("Asosiy tushunchalar") korrupsiyaga shunday aniq ta'rif berilgan: *"Korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini ko'zlab moddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish"* [2]. Sulton Ali Xo'ja va Hakimjonlarning harakati aynan milliy iqtisodiyotni ichidan yemiruvchi, kapitalning real ishlab chiqaruvchilardan korrupsiyalashgan mansabdor shaxslar qo'lga asossiz o'tib ketishini ta'minlovchi klassik korrupsiya namunasidir.

4. Axborot asimmetriyasi va bozordagi manipulyatsiyalar:

Iqtisodiy munosabatlarda muvaffaqiyatsizlikka va tizimli inqirozga olib keluvchi yana bir xavfli omil — axborot asimmetriyasi, ya'ni bir tomonning (amaldorning) ikkinchi tomonga (soliq to'lovchiga) qaraganda ko'proq ma'lumotga yoki ustunlikka ega bo'lishidir. Iqtisodiyot nazariyasida axborotning tomonlar o'rtasida teng taqsimlanmasligi bozor mexanizmining samarali ishlashiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri sifatida qaraladi. Axborot ustunligiga ega bo'lgan tomon undan o'z manfaatini ko'zlab foydalanishi va iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonida ikkinchi tomonning imkoniyatlarini cheklashi mumkin [6].

Sulton Ali Xo'ja dehqonlarning huquqiy va iqtisodiy savodsizligidan foydalanib, o'zini muqaddas avliyolarga qarindosh qilib ko'rsatadi: «Derki:

«Bizga bobo hazrati Shohlig' mazor,

Muxlisimiz mardumi ahli dior.

Ham yana Erxubbi bo'lodur tag'o...

Xizr otamlarga buroddar erur...»

Bu orqali u bozordagi o'z mavqeyini sun'iy ravishda oshiradi va dehqonlar ustidan monopoliyaga erishadi. Sog'lom iqtisodiy muhitda har qanday bitim va munosabat shaxsiy mifologiyaga yoki ruhiy qo'rqitishga emas, shaffof, ochiq va teng huquqli ma'lumotlarga tayanishi shart. Axborot asimmetriyasi saqlanib qolgan jamiyatda resurslar asossiz va noto'g'ri taqsimlanadi, bu esa bozor qonuniyatlariga butkul ziddir [5; 6].

5. Soliq yukining asossiz oshishi va makroiqtisodiy oqibatlar:

Asar so'ngida Muqimiy uzoq va qiyin davom etgan ushbu fiskal o'yinlar iqtisodiyotni qay darajada xonavayron qilganini umumlashtiradi. Soliq ma'murlari faqat moddiy mablag'larni tortib olish bilan cheklanib qolmay, jamiyatning intellektual resurslarini ham ekspluatatsiya qilishadi. Buni amaldor o'z o'g'li Jalolxonni shoirga bepul mirzalikka berib ketganidan ham ko'rish mumkin:

«Qo'shti Jalolxon degan o'g'lin manga,

Dedi:

"Ruqum o'rgatadursiz siz anga"».

Bu detal iqtisodiy tilda korrupsion subyektlarning o'z ortidan yangi noqonuniy vorislarni tayyorlash va o'z imtiyozlarini kelajak avlodga beshikast topshirish strategiyasini anglatadi [3]. Bunday yopiq iqtisodiy elitalarning shakllanishi jamiyatda sotsial liftlarning yopilishiga, sog'lom kadrlar raqobatining yo'qolishiga va uzoq muddatli istiqbolda mamlakat yalpi ichki mahsulotining pasayishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning «Tanobchilar» satirasi iqtisodiyot yo'nalishi talabalari uchun o'tmish fiskal tizimining jarohatlarini o'rganishda muhim iqtisodiy darslik hisoblanadi. Asar fundamental iqtisodiy qoidani isbotlaydi: agar soliq tizimida shaffoflik bo'lmasa, soliq yuki asossiz oshirilsa va korrupsiyaga qarshi samarali choralar ko'rilmasa, jamiyatda kapital to'planishi (investitsiya) to'xtaydi va iqtisodiyot tanazzulga yuz tutadi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli soliq islohotlari, ma'lumotlarni to'liq raqamlashtirish jarayonlari, kadastr tizimining shaffofligi hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash siyosati aynan Muqimiy davridagi kabi salbiy iqtisodiy oqibatlarning oldini olishga va

milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga qaratilgan amaliy hamda strategik qadamlardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2017.
3. Muqimiy, Muhammad Aminxo'ja. Asarlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974.
4. Karimov, N. O'zbek adabiyoti tarixi (XIX asr oxiri – XX asr boshi). – Toshkent: O'qituvchi, 1995.
5. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: "Iqtisodiyot-Moliya", 2019.
6. Mankiw N.Gregory. Principles of Economics. – 9th Edition. – Boston: Cengage Learning, 2021.